

КОНСТИТУЦИЯ МЕНИКИ, СЕНИКИ, ЎЗИМИЗНИКИ!

Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari!

Boysun

2023-yil 12-aprel
№ 7 (6399)

Ijtimoiy - siyosiy gazeta
www.boysun ovozi.uz

Gazeta 1932-yil 1-maydan chiqa boshlagan

Xalq deputatlari Boysun tuman Kengashi va tuman hokimligining gazetasi

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

МУҲИМ МАСАЛАЛАР МУҲОКАМАСИ

Халқ депутатлари туман Кенгашининг ҳар бир сессиясида муҳокама этилаётган масалалар моҳиятан юртдошларимизнинг ҳаётини яхшилаш, фаровонлигини ошириш ҳамда юзага келган муаммоларни қай йўсинда бар-
тараф этиш тўғрисида эканлиги билан ажралиб туради. Хусусан, Халқ депутатлари туман Кенгашининг навбатдаги сессиясида муҳокамада-
ги масалалар ҳам туманимизнинг бу-
гунги ҳаётини қамраб олганлиги билан аҳамиятлидир. Кенгаш котибият мудири Зоҳида Ўзбекова раислиги-
да ўтган сессияда туман Кенгаши де-
путатларидан ташқари корхона, таш-
килот, муассаса раҳбарлари, мактаб директорлари ҳамда референдум участка комиссияси аъзолари ишти-
рок этдилар.

Биринчи масала — депутатлик ўрни бўшаб қолган Мунчок, Темир Дарвоза ҳамда Қўлқамиш сайлов округларида бўлиб ўтган сайлов натижалари юзасидан туман сайлов ко-
миссияси раиси Баҳром Умаров ҳисоб берди. У қўпчили сайловчи-
ларнинг хоҳиш-иродасига қўра ҳар
уч сайлов округидан муносиб депу-
татлар сайланганлигини эътироф
этаркан, Раҳматулло Болтаев, Фах-
риддин Бобомуродов ва Бохадир Шу-
куровларнинг туман Кенгаши депу-
татлигига сайланганлиги билан му-
боракбод этди.

Шунингдек, сессияда “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси-
нинг 2022 йил 31 мартдаги “Хотин-
қизлар муаммоларини ўрганиш ва ҳал
этиш тизимини янада такомиллаш-
тириш тўғрисида”ги 145-сонли Қаро-

рининг Бойсун тумани-
даги ижроси тўғрисида”
туман ҳокимининг оила ва хотин-
қизлар масалалари бўйича ўринбо-
сари Саодат Жўракулова, “Ўзбеки-
стон Республикаси Президентининг
2020 йил 6 ноябрдаги “Ўзбекистон-
нинг янги тараққиёт даврида таъ-
лим-тарбия ва илм-фан соҳалари-
ни ривожлантириш чора-тадбирла-
ри тўғрисида”ги ПФ-6108-сонли
Фармони юзасидан туманда олиб
борилаётган ишлар тўғрисида” 18-
43-умумий ўрта таълим мактаби ди-
ректорлари Норқобил Курбонов,
Панжи Холмуродовларнинг ҳисобот-
лари тингланди. Шунинг билан бир
қаторда сессияга киритилган бошқа
масалалар юзасидан туман Кенга-
ши депутатлари Назар Турдибоев,
Файзиддин Турсункулов, Самад Ба-
хомулинов, Бекмурод Хайитов, оила
ва хотин-қизлар бўлими бошлиғи Са-
одат Жўракулова, туман халқ таъ-
лими бўлими мудири вазифасини
бажарувчи Шухрат Холматовлар ҳам
ўз тақлиф-мулоҳазаларини ўртага
ташладилар. Айниқса, 30 апрелда
ўтказиладиган референдум ҳамда
овоз бериш участкаларини тадбир-
га тайёрлаш масалалари ҳам му-
ҳокама этилиб, референдум участ-
ка комиссияси аъзолари тасдиқлаб
олинди. Бундан ташқари, хотин-қиз-
ларни меҳнатга жалб этиш, битрув-
чи йигит-қизларни олийгоҳларга
тайёрлаш, депутатлик одоби тўғри-
сида батафсил сўз юритдилар.

Сессияда қўрилган масалалар
юзасидан тегишли қарорлар
қабул қилинди.

Фахриддин БОБОМУРОДОВ,
туман Кенгаши депутати.

Яйловлар чорвачиликни ривожлантириш, жумла-
дан, гўш, сут ва жун маҳсулотлари ишлаб чиқа-
ришни янада кўпайтиришда энг асосий омиллар-
дан биридир. Шунинг учун ҳам мамлакатимизда
мавжуд чорва яйловларидан самарали фойдала-
нишга қаратилган қатор қонунлар, Президент
қарор ва фармонлари қабул қилинган. Жумладан,
Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбе-
кистон Республикасида пиллачилик ва қорақўл-
чиликни янада ривожлантириш чора-тадбирлари
тўғрисида”ги ПФ-6059-сонли Фармони, 2021 йил
9 февралдаги “Қорақўлчилик тармоғини янада ри-
вожлантириш бўйича қўшимча
чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-5178-сонли қаро-
ри асосида туманимиздаги барча яйлов ерлар
Республика пиллачилик ва қорақўлчиликни ривож-
лантириш уюшмасига доимий фойдаланиш ҳуқуқи
билан ажратиб берилиб, чорва кластери ташкил
этилди.

Юқорида эслатиб ўтилган қарор ва фармонлар,
қонунлар талабига кўра чорва фермерлар чорва
кластерлари билан шартнома тузган ҳолда фао-
лият кўрсатишлари ҳамда мавжуд яйлов ерлар-
дан самарали фойдаланишлари шарт ва зарур-
дир. Шундай бўлишига қарамайдан бугунги кунда
туманимиздаги мавжуд фермерлар кластер би-
лан шартнома тузмасдан, қонунчиликка зид ра-
вишда фаолият юритиб келяптилар. Хусусан, яқин-
да туман ҳокимлиги ҳамда республика “Қорақўл-
чилик ва яйлов хўжалигини ривожлантириш” уюш-
маси таркибидagi “Бойсун Кўнгирот чорваси” МЧЖ

ҳамкорлигида ўтказилган таҳлил натижасида бу
нарсаси очикланди. Кейинги уч йил давомида фер-
мерлар кластер билан шартнома тузмасдан, азо-
лик пул бадалли ва мол бош сонлари бўйича тўло-
вларни амалга оширмасдан яйловлардан ўзбошим-
чилик билан фойдаланиб келяптилар. Ваҳоланки,
Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик
тўғрисидаги кодекснинг 200-моддасига асосан яй-
ловлардан ўзбошимчилик билан ноқонуний фойда-
ланиш, яйловларнинг ҳолатини бузиш, деградация-
га учратиш каби ҳолатлар бўйича етказилган за-
рарларни суд тартибиди ундириш белгилаб қўйил-

ЯЙЛОВ ҲАМ БОЙЛИГИМИЗ

УНДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ҲАР БИР ФЕРМЕРНИНГ БУРЧИ

Бундан ташқари чорвадор фермерлар йиллик
чорва мол бош сонларини беш фоизга ошириб бо-
риш талабларига мутлақо риоя қилмаяптилар. Меҳ-
нат кодексига кўрсатилган талабларга кўра 200
бош мол учун 1 нафар бош чўпон ва 1 нафар ёрдам-
чи чўпон штати кўрсатилиши белгиланган бўлса-
да, фермерлар солиқлардан қочиш мақсадида ушбу
талабларни ҳам деярли бажармаяптилар. Баъзи бир
фермерлар ўзларига тегишли яйлов ерларда ста-
тистик ҳисоботларда кўрсатилмаган йирик шоҳли
ва майда (шахсий хўжаликларга қарашли) моллар-
ни киритиб, яйловлардан фойдаланиш тартибини
бузаяптилар, аҳолидан тушган тушумларни яширяп-
тилар. Молиявий ҳаракатлар ҳисоб рақами орқали
бажарилмасдан, бозорда сотилган чорва моллари-
дан тушган нақд тушумларни солиқ органларидан
яшириш оммалашган. Умуман, бугунги кунда чорва
фермерлари томонидан яйловлардан фойдаланишда



Ўзбекистонда яшовчи ҳар бир ки-
шининг ўз уйи, турар жойи бўлиши ке-
рак. Ўзбек мудом ижарада ёки баъзан
кўп аъзоли оила яшолмайди.

Шунинг учун ҳам халқимизнинг, айниқ-
са, ёш оилаларнинг уй-жойга бўлган муҳ-
тожлиги ҳисобга олинган ҳолда, жойлар-

да “Янги Ўзбекистон” массивлари бунёд
этиляпти. Ҳамманинг уй-жойли бўлиши
эса Президентимизнинг орзуси...

Бу борада Юртбошимиз раҳбарлигида
муайян ишларни амалга ошириш баробари-
да оғир турмуш шароитига тушиб қолган, уй-
жойга муҳтож хотин-қизларга имтиёз ва

имкониятлар яратиб беришга ҳам ало-
ҳида аҳамият қаратилмоқда. Хусусан,
боқувчисидан жудо бўлганлар ва но-
ғиронлиги бор шахсларнинг турмуш
шароитлари ўрганилиб, туман ҳоким-
лиги қошидаги комиссия ҳамда Халқ
қабулхонаси билан ҳамкорликда 18 на-
фар хотин-қизларга уй-жой сотиб оли-
ш учун дастлабки бадал сифатида пул
маблағлари ажратишни халқ депутат-
лари вилоят Кенгашига рўйхат тақдим
этилган эди. Яқинда вилоят Кенгаши-
нинг қарори билан туманимиздаги 18
нафар хотин-қизларга уй-жой сотиб
олиши учун 574 миллион 203 минг сўм
миқдорида маблағ ажратилди. Қолган қисми
йилгирма йил мобайнида ойма-ой тўлаб бо-
рилса, уй-жой нақд!

Ойбек КАРИМОВ,
туман Халқ қабулхонаси мута-
хассиси.

Мамлакатимизнинг ўз тақдирига,
эртанги кунига бефарқ бўлмаган
ҳар бир фуқароси каторида мен
ҳам 30 апрель кунда ўтказилиши
кутилаётган умумхалқ овоз бериш
— референдумга жиддий тайёргар-
лик кўряпман. Зотан, бўлажак ре-
ферендум келажагимиз ва Янги
Ўзбекистон тараққиётининг узоқ
ийллик кафолати сифатида эъти-
роф этилаётган, деярли тубдан
ўзгартирилган, бугунги замон руҳи,
шитобига монанд таҳрир қилинган
Бош Қомусимизни қўллаб-қув-
ватлаш учун бизга тақлиф қили-
наётган имкониятдир. Бу каби
имконият эса инсон умри даво-
мида кўп такрорланмайдиган сиёсий
жараён.

Референдумга нима мақсадда
бораётганим, унинг маъно-моҳия-
тини борица тасаввур қилишим
учун янги таҳрирдаги Ўзбекистон
Республикаси Конституциясининг
лойиҳаси билан танишдим. Айниқ-
са, янги боблар, моддаларга ало-
ҳида эътибор қаратдим. Амалдаги
Қомусимиз билан қиёсладим. Ху-
сусан, 42-моддада қайд этилган:
“Меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам
миқдори инсоннинг муносиб тур-
муш даражасини таъминлаш зарурати
ҳисобга олинган ҳолда белгиланади”
мазмунидagi янгилик назаримда, аҳоли-
нинг ижтимоий муҳофазаси билан бо-
ғлиқ муҳим бир адолатсизликка барҳам
беришига умид уйғотади бизда.

Тан олиш керак, бугунги нормаларда
белгиланган меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг
кам миқдори ушбу моддада таъкидлана-
ётган “**инсоннинг муносиб турмуш да-
ражасини таъминлаш зарурати ҳисоб-
га олинган ҳолда**” белгиланган эмас
ва ўша зарурият даражасини ҳозиргача
ҳам ҳеч ким реал ҳисоблаб кўрмаган. Бу-

БЕФАРҚ ЭМАСМИЗ ЯНГИ КОНСТИТУЦИЯ – БИЗ КУТГАН ҚОМУС



гунги бозор муносабатлари ва ижтимоий
аҳолимиздан (айниқса, кам даромадли
аҳоли қатламнинг турмуш тарзидан) ке-
либ чиқиб таҳлил қиладиган бўлсак, ҳозир-
гача амалда бўлиб турган миқдор биз орзу
қилаётган муносиб турмуш даражасининг
ўндан бир қисmini ҳам рўёбга чиқариш
учун камлик қиладди.

Мазкур масаланинг айнан Конституция
моддалари билан мустаҳкамланаётгани
келгусида мамлакатимиз аҳолиси турмуш
даражасини фаровонлаштиришга қаратил-
ган давлат дастурлари, лойиҳалари ва
қонунчилигини амалга ошириш жараёни-
да алоҳида эътиборга олинди, меҳнатга ҳақ



тўлашнинг энг кам миқдорини қайта белги-
лашда у ҳақиқатанда инсоннинг муносиб
турмушини таъминлай олиш даражасига
етказилади деган умиддаман.

Мен оилам, фарзандларим ва неварал-
рим тақдир, уларнинг эртанги фаровон
турмуш тарзига бепарво бўлмаган бир фу-
қаро сифатида 30 апрель кунда ўтадиган
референдумга биринчилардан бўлиб ишти-
рок этаман ва барча ватандошларимни ҳам
бўлажак муҳим сиёсий кампанияга бефарқ
бўлмасликка чақираман.

Ашур ОЧИЛДИЕВ,
меҳнат фахрийси. Чор чинор маҳалласи.

ХАЛҚ ДЕПУТАТЛАРИ БОЙСУН ТУМАН КЕНГАШИГА САЙЛОВ ЎТКАЗУВЧИ ТУМАН САЙЛОВ КО- МИССИЯСИНИНГ ҚАРОРИ

Халқ депутатлари Бойсун туман Кенгаши
депутатини рўйхатга олиш тўғрисида

2023 йил 2 апрелда Халқ депутатлари Бойсун ту-
ман Кенгашининг бўшаб қолган ўрни учун 15-Қўлқам-
миш округида сайлов бўлиб ўтди.

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва
Ўзбекистон Республикасининг Сайлов кодексига
тўла мувофиқ равишда бўлиб ўтган сайловда
рўйхатга олинган 2117 нафар сайловчилардан
1141 нафар сайловчи ёки рўйхатга киритилган сай-
ловчиларнинг 54 фоизи иштирок этди.

2023 йил 2 апрелда бўлиб ўтган сайлов якун-
лари ҳақидаги участка сайлов комиссиясининг ба-
ённомасига асосан Ўзбекистон Республикаси Сай-
лов Кодексининг 20- ва 97-моддаларига мувофиқ
Халқ депутатлари Бойсун туман Кенгашига сай-
лов ўтказувчи туман сайлов комиссияси
ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1. 2023 йил 2 апрелда Халқ депутатлари Бойсун
туман Кенгашининг 15-Қўлқамиш округида бўшаб
қолган ўринга сайлов ўтган деб ҳисоблансин.

2. Халқ депутатлари Бойсун туман Кенгашининг
15-Қўлқамиш округида бўшаб қолган ўринга сай-
ланган депутат Шукров Бохадир Шотураевич ном-
зоди рўйхатга олинсин.

3. Мазкур қарор маҳаллий оммавий ахборот во-
ситаларида эълон қилинсин.

4. Ушбу қарор ижросини назорат қилиш туман
сайлов комиссияси котиби Ж.Ғалиева зиммасига
юклатилсин.

Туман сайлов комиссияси раиси

Б.Умаров.

Ватан ягонадир, Ватан биттадир!
Boysun
Халқ депутатлари Бойсун туман Кенгаши ва туман ҳокимлигининг gazetasi

2023-yil uchun
“Boysun” gazetasiga
obuna davom etmoqda!
**Aziz
mushtariylar!**

Obuna bo'lish bevosita tahririyatning
Agrobankdagi hisob raqami
20210000400429681001, INN 202173689
Boysun pochta aloqa filiali va Matbuot
tarqatuvchi sho'ba korxonasi tuman
bo'limlari orqali amalga oshirilmoqda.

Yillik obuna
bahosi —
180 000 so'm.

Дарҳақиқат, тинч-осуда яшаётган халқимиз
хонадонларида бугун рамазон шукуҳи кезиб
юрибди. Қолаверса, бу қутлуғ айём кунлари-
ни ўтказиш борасида муҳтарам Юртбошимиз-
нинг кўрсатмалари бугун ҳар бир маҳалла,
ҳар бир хонадонда ўз ижобатини топмоқда.
Хусусан, туман ҳокимлиги, сектор раҳбарла-
ри, оила ва хотин-қизлар ҳамда маҳалла ва
нуронийларни қўллаб-қувватлаш бўлимлари
саъй-ҳаракатлари билан маҳаллаларда ўка-

РАМАЗОН ШУКУҲИ

зилаётган ифторликлар, шулар жумласидан-
дир. Туманимиздаги “Хумо” ва “Висол” баз-
млар саройларига таширф буюрган кекса-
лар, намозхон биродарларимиз ва хотин-қиз-
лар ифторлик дастурхони атрофида ўтириб,
диний улаомларимизнинг амру маъруфини
тинглаган ҳолда фарзларни ижро этмоқда-
лар. Уйлаймизки, бу каби эзгулик тадбирла-
ри келгусида анъанага айланиб қолади.

Даврон НАРЗУЛЛАЕВ,
туман ҳокимлигининг диний ишлар бўйи-
ча бош мутахассиси.

BOYSUN TUMANI BO'YICHA:
1-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Tuzbozor" MFY yig'ini, A.Navoiy ko'chasi, 109-uyda joylashgan 2-son umumta'lim maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Tuzbozor " mahalla fuqarolar yig'ining Beruniy, Oybachin ko'chalari hamda A.Navoiy ko'chasining "Tuzbozor" mahallasi hududidan o'tgan qismi chegaralarida.
2-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Chorchinor" mahalla fuqarolar yig'ini, Mehridaryo ko'chasi, 41-uyda joylashgan 4-sonli umumta'lim maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Chorchinor" mahalla fuqarolar yig'ining Mehridaryo ko'chasi hamda A.Navoiy ko'chasining "Chorchinor" mahallasi hududidan o'tgan qismi chegaralarida.
3-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Chorchinor" mahalla fuqarolar yig'ini, Mehridaryo ko'chasi, 41-uyda joylashgan 4-sonli umumta'lim maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Bog'ibolo" mahalla fuqarolar yig'ining Fidoyilar, Tinchlik, O'zbekim, Shohariq, Yangiovul ko'chalari chegaralarida.
4-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Ariqusti" mahalla fuqarolar yig'ini, Hayot abadiy ko'chasi, 3-uyda joylashgan 47-sonli umumta'lim maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Ariqusti" mahalla fuqarolar yig'ining Hayot abadiy, Mehridaryo, Nuroniy ko'chalari chegaralarida.
5-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Toqchi" mahalla fuqarolar yig'ini, Shalola ko'chasi, 15-uyda joylashgan Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Toqchi" mahalla fuqarolar yig'ining Baraka, G'uncha, Istiqlol-2, Kamolot, Qadriyat, Madaniyat, Ezgulik, Yurt shamoli, Shalola ko'chalari chegaralarida.
6-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Obi" mahalla fuqarolar yig'ini, Olmazor ko'chasi, 96-uyda joylashgan 1-sonli umumta'lim maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Obi" mahalla fuqarolar yig'ining Gulzor, Istiqbol, Istiqbol-1, Ma'rifat, Mehr, Bog'cha, Taraqqiyot, Turon, Farovon ko'chalari hamda Olmazor ko'chasining "Obi" mahallasi hududidan o'tgan qismi chegaralarida.
7-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Kosiblar" mahalla fuqarolar yig'ini, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 149-uyda joylashgan 13-sonli umumta'lim maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Kosiblar" mahalla fuqarolar yig'ining Istiqlol, Baxt, Zartepa, Mirzo Ulug'bek, Ma'naviyat, Afrosiyob, Quvonchli, E'tirof ko'chalari chegaralarida.
8-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Obi" mahalla fuqarolar yig'ini, Olmazor ko'chasi, 158-uyda joylashgan 6-son Bolalar musiq'a va san'at maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Kosiblar" mahalla fuqarolar yig'ining Yakkabog', Nuriston, Sharafli ko'chalari chegaralarida.
9-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Mustaqillik" mahalla fuqarolar yig'ini, Olmazor ko'chasi, 133-uyda joylashgan 39-sonli umumta'lim maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Mustaqillik" mahalla fuqarolar yig'ining Orzumand, Zafarobod, Ko'klam nafasi, Bahor, Yangi bozor, Mirqorako'z ko'chalari hamda Sharof Rashidov ko'chasining "Mustaqillik" mahalla fuqarolar yig'ini hududidan o'tgan qismi, Olmazor ko'chasining "Mustaqillik" mahalla fuqarolar yig'ini hududidan o'tgan qismi chegaralarida.
10-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Poygaboshi" mahalla fuqarolar yig'ini, Sharof Rashidov ko'chasi, 85-uyda joylashgan "Surxongeologiya" Davlat unitar korxonasi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Poygaboshi" mahalla fuqarolar yig'ining Giloszor, Dilnur, Kulollar, Sevinch ko'chalari hamda Sharof Rashidov ko'chasining "Poygaboshi" mahallasi hududidan o'tgan qismi chegaralarida.
11-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Gaza" mahalla fuqarolar yig'ini, Istiqlol ko'chasi, 35-uyda joylashgan 1-son kasb-hunar maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Gaza" mahalla fuqarolar yig'ining Marvarid, Algoritm, Baxt, Birdamlik, Diyodorkam, Zarafshon, Qorovultepa, Muborak, Muqimiy, Mustaqillik, Novshahar, Shodlik, Yangi avlod ko'chalari chegaralarida.
12-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Sho'rsoy" mahalla fuqarolar yig'ini, Istiqlol ko'chasi, 51-uyda joylashgan 6-sonli umumta'lim maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Sho'rsoy" mahalla fuqarolar yig'ining Jiydali, Ibrat, Qayirma, Ilg'or, Toba, Obodguzar, Orzu, Namuna, Ko'rkamsoy ko'chalari chegaralarida.
13-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Mustaqillik" mahalla fuqarolar yig'ini, Ostona ko'chasi, 1-uyda joylashgan 2-son kasb-hunar maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Sho'rsoy" mahalla fuqarolar yig'ining Nurafshon, Hurmat, Qozoqsoy, Yangi ko'cha ko'chalari hamda "Mustaqillik" mahalla fuqarolar yig'ining "Navro'z" uchastkasi Ostona, Ko'rkam, Obod yurt, Baxtiyo'li ko'chalari chegaralarida.
14-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Ko'chkak" mahalla fuqarolar yig'ini, Do'stqo'li ko'chasi, 82-uyda joylashgan 7-sonli umumta'lim maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Ko'chkak" mahalla fuqarolar yig'ining Do'stqo'li, Qorasuv, Labihovuz, Mirsodiq, Nuroniylar, Oqbuloq, Oltinyo'l, Sangisafed, Tayisurxi, Harduri, Harduri-1, Chinor, Yangiyo'li ko'chalari chegaralarida.
15-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Inkobod" mahalla fuqarolar yig'ini, Yuqoriguzar ko'chasi, 75-uyda joylashgan 27-sonli umumta'lim maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Inkobod" mahalla fuqarolar yig'ining "Inkobod" qishlog'i Yoshlik, Yuqoriguzar, Cho'yanchi ko'chalari hamda Chorbog' qishlog'i Chorbog' ko'chalari chegaralarida.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI REFERENDUMINI O'TKAZUVCHI 9-SURXONDARYO OKRUG KOMISSIYASI QARORI

REFERENDUM O'TKAZUVCHI UCHASTKA KOMISSIYALARI TARKIBINI TASDIQLASH TO'G'RSIDA
O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Referendumi to'g'risida"gi Qonunining 20-, 21-moddalariga asosan O'zbekiston Respublikasi Referendumini o'tkazuvchi 9-Surxondaryo okrug komissiyasi QAROR QILADI:

- Xalq deputatlari 1 ta shahar va 14 ta tuman Kengashlarining "O'zbekiston Respublikasi Referendumini o'tkazuvchi 9-Surxondaryo referendum okrugiga bo'yicha referendum o'tkazuvchi uchastka komissiyalari a'zolariga nomzodlarni tavsiya etish haqida"gi Qarorlari hamda 16 ta maxsus uchastka komissiyalari a'zolariga tavsiya etish bo'yicha taqdimnomalari ma'lumot uchun qabul qilinisin.
- (Qarorlar va taqdimnomalar ilova qilinadi).
- O'zbekiston Respublikasi Referendumini o'tkazuvchi 9-Surxondaryo referendum okrugiga hududi bo'yicha referendum o'tkazuvchi uchastka komissiyalarining quyidagi tarkibi tasdiqlansin:
- Ushbu qaror matbuotda e'lon qilinsin.
- Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasiga yuborilsin.
- Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish okrug komissiyasi raisining o'rinbosari R.N.To'rayev zimmasiga yuklatilsin.
- 9-Surxondaryo okrug komissiyasi raisi.**

P.Xo'jaqulov

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI REFERENDUMINI O'TKAZUVCHI 9-SURXONDARYO OKRUG

O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazuvchi referendum uchastkalarini tuzish to'g'risida
O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Referendumi to'g'risida"gi Qonunining 16-, 20-moddalariga asosan O'zbekiston Respublikasi Referendumini o'tkazuvchi 9-Surxondaryo okrug komissiyasi QAROR QILADI:
1.O'zbekiston Respublikasi Referendumini o'tkazuvchi 9-Surxondaryo okrugiga hududi bo'yicha referendum uchastkalarining joylashuvi yuzasidan 1 ta shahar va 14 ta tumanlar hokimlarining taqdimnomalari ma'lumot uchun qabul qilinisin.

16-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Inkobod" mahalla fuqarolar yig'ini, Kamari aziz ko'chasi, 60-uyda joylashgan 29-sonli umumta'lim maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Inkobod" mahalla fuqarolar yig'ining "Qiyakamar" qishlog'i Qiyakamar ko'chasi hamda Omonxona qishlog'i, Kamari aziz, Girdikamar ko'chalari chegaralarida.
7-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Inkobod" mahalla fuqarolar yig'ini, Padang ko'chasi, 2-uyda joylashgan 22-sonli umumta'lim maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: Inkobod mahalla fuqarolar yig'ining Padang qishlog'i Boysun bahori, Ichki Padang, Padang ko'chalari chegaralarida.
18-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Dashtig'oz" mahalla fuqarolar yig'ini, Oydinyo'l ko'chasi, 101-uyda joylashgan 31-sonli umumta'lim maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Dashtig'oz" mahalla fuqarolar yig'ining Dashtig'oz qishlog'i G'allakor, Gulobod, Ko'klamli, Kunchiqar, Obodon, Og'zi keng, Ozodlik, Oydinyo'l, Oqoltin, Sarido'ng, Yagona ko'chalari chegaralarida.
19-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Dashtig'oz" mahalla fuqarolar yig'ini, Pudina ko'chasi, 68-uyda joylashgan 49-sonli umumta'lim maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Dashtig'oz" mahalla fuqarolar yig'ining Pudina qishlog'i Arg'amchi, Pudina ko'chalari, Sarigamish qishlog'i Sokin, Sohil, Porloq kelajak, Vatanparvar ko'chalari, O'rtao'z qishlog'i, Bog'bonlar, Ibratli, O'rtao'z ko'chalari hamda Ajrim qishlog'i Illoq, Buyuk kelajak ko'chalari chegaralarida.
20-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Pulhokim" mahalla fuqarolar yig'ini, Nurlidiyov ko'chasi, 3-uyda joylashgan 6-sonli oilaviy poliklinikasiga qarashli "Pulhokim" tibbiy tayanch punkti binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Pulhokim" mahalla fuqarolar yig'ining Bog'chasaroy, Jarboshi, Kattakop'rik, Ko'Ichinor, Qishloqsoy, Qoribog', Qo'rg'ontepa, Nurlidiyov, Oqsoy, Tutzor, Tuyaqishloq, Yangiariq ko'chalari chegaralarida.
21-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Duoba" mahalla fuqarolar yig'ini, Mehnat rohat ko'chasi, 16-uyda joylashgan 17-sonli umumta'lim maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Duoba" mahalla fuqarolar yig'ining Duoba qishlog'i Qorli, Loyqasoy, Mehnat-rohat, Teraki, Tolzor, Uzunsoy, Sho'rolma ko'chalari hamda Gumatak qishlog'i Archali, O'rmonli ko'chalari chegaralarida.
22-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Duoba" mahalla fuqarolar yig'ini, Qayroq ko'chasi, 52-uyda joylashgan 17-sonli umumta'lim maktabi filiali binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Duoba" mahalla fuqarolar yig'ining Qayroq qishlog'i Qayroqli, Toshli ko'chalari chegaralarida.
23-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Xo'jaiddod" mahalla fuqarolar yig'ini, Qo'shdaryo ko'chasi, 73-uyda joylashgan 18-sonli umumta'lim maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Xo'jaiddod" mahalla fuqarolar yig'ining Qo'rg'oncha qishlog'i, Qo'shdaryo, Navnihol, Yurti-ag'o ko'chalari chegaralarida.
24-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Xo'jaiddod" mahalla fuqarolar yig'ini, Shotut ko'chasi, 61-uyda joylashgan 44-sonli umumta'lim maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Xo'jaiddod" mahalla fuqarolar yig'ining Nazari qishlog'i Gullibog', Nazariy, Shotut ko'chalari chegaralarida.
25-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "O'rmonchi" mahalla fuqarolar yig'ini, Alachapon ko'chasi, 74-uyda joylashgan 50-sonli umumta'lim maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "O'rmonchi" mahalla fuqarolar yig'ining Alachapon qishlog'i, Alachapon ko'chasi chegaralarida.
26-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "O'rmonchi" mahalla fuqarolar yig'ini, Yakkatol ko'chasi, 93-uyda joylashgan 56-sonli umumta'lim maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "O'rmonchi" mahalla fuqarolar yig'ining Yakkatol qishlog'i Yakkatol ko'chasi chegaralarida.
27-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Dehibolo" mahalla fuqarolar yig'ini, Namozgar ko'chasi, 49-uyda joylashgan 19-sonli umumta'lim maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Dehibolo" mahalla fuqarolar yig'ining Zervaroz, Gilambob, Maydon, Namozgar, Xo'janur, Shoti ko'chalari chegaralarida.
28-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Hunarmandlar" mahalla fuqarolar yig'ini, Bog'ot ko'chasi, 138-uyda joylashgan 3-sonli umumta'lim maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Hunarmandlar" mahalla fuqarolar yig'ining Bog'lobod, Bog'ot, Jamilasoy, Ko'kdara, Pishoq, Xirmonjoy, Hunarmand, Chevarlar ko'chalari chegaralarida.
29-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Avlod" mahalla fuqarolar yig'ini, Sarimozor ko'chasi, 37-uyda joylashgan 8-sonli umumta'lim maktabi

binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Avlod" mahalla fuqarolar yig'ining Ko'soy, Lalim, Omad, Sarimozor, Soylichashma, Shamadaroz, Yakarcha, Chashma ko'chalari chegaralarida.
30-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Pasurxi" mahalla fuqarolar yig'ini, Fidokor ko'chasi, 63-uyda joylashgan 5-sonli umumta'lim maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Pasurxi" mahalla fuqarolar yig'ining Chashmilolo, Birchinor, Qumsoy, Bo'ston ko'chalari chegaralarida.
31-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Pasurxi" mahalla fuqarolar yig'ini, Fidokor ko'chasi, 63-uyda joylashgan 5-sonli umumta'lim maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Pasurxi" mahalla fuqarolar yig'ining Nishon, Do'stlik, Gulshan, Fidokor, Yangi Masjid, Novchakka ko'chalari chegaralarida.
32-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Shirinobod" mahalla fuqarolar yig'ini, Fayzli ko'chasi, 88-uyda joylashgan 33-sonli umumta'lim maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Shirinobod" mahalla fuqarolar yig'ining Labisoy, Lalmikor, Oyboriksoy, Oqtuproq,Oltinnur, Saxovat, O'rtasoy, Xalqobod, Yakkapista, Fayzli ko'chalari chegaralarida.
33-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Bibishirin" mahalla fuqarolar yig'ini, Bibijon ko'chasi, 104-uyda joylashgan Boysun ko'p'tarmoqli texnikum binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Bibishirin" mahalla fuqarolar yig'ining Bibijon, Bologo'rg'on, Kelajak, Qadamoy, Murodbaxsh, Nafosat, Poyonqo'rg'on, Sarg'iyoz, Sebzor, Tumango'rg'on, Uzunmzor, O'rtaqo'rg'on, Chabira, Chashmali, Chingsoy, Sharq guli,Yangibog' ko'chalari chegaralarida.
34-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Boshrabot" mahalla fuqarolar yig'ini, Buyuk ipak yo'li ko'chasi, 16-uyda joylashgan 7-sonli oilaviy poliklinikasi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Boshrabot" mahalla fuqarolar yig'ining Rabot qishlog'i Amirtepa, Guliston, Obodqishloq, Tong yulduzi, Yuqori Rabot, Yangiobod ko'chalari hamda Oqjar qishlog'i, Oqjar ko'chalari chegaralarida.
35-referendum uchastkasi
Referendum uchastkasi markazi: "Boshrabot" mahalla fuqarolar yig'ini, Yangiqishloq ko'chasi, 63-uyda joylashgan 35-sonli umumta'lim maktabi binosi.
Referendum uchastkasi chegaralari: "Boshrabot" mahalla fuqarolar yig'ining Yangiqishloq, Yomchi qishlog'i, Yomchi, Ziyoli, Lokomotiv, Navbahor, Tadbirkorlar, Bunyodkor, Yangiqishloq, Buyuk ipak yo'li, Rabot, Chinobod ko'chalari hamda Pitov qishlog'ining Pitov, Olchali, Yaylovli ko'chalari chegaralarida.
36-referendum uchastkasi
